



TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA

Bilolov Inomjon O'ktamovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
Farg'ona filiali professori
bilolov1959@mail.ru

Nuritdinova Gulnigor Taxirjanovna
Farg'ona viloyati Beshariq tumani
1-son politexnikumi, Maxsus fanlar kafedrası mudiri
nuritdinova1985@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'lim tizimida tutgan o'rni, uning sifatleri va xorij davlatlarida undan keng ko'lamda foydalanib kelinayotgani haqida so'z boradi. Ta'lim tizimida sun'iy intellekt yordamida yangicha metodlarning ishlab chiqilishi tizimni yaxshiroq isloh qilishga yordam berishi haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ta'lim, ta'lim muassasalari, talaba, o'qituvchi, fan va texnologiya, o'qitish tizimi, texnologiya, avtomatlashtirish.

FOREIGN EXPERIENCE IN THE APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Abstract. This article discusses the role of artificial intelligence in the education system, its qualities, and its widespread use in foreign countries. It is noted that the development of new methods using artificial intelligence in the education system will help to better reform the system.

Keywords: Artificial intelligence, education, educational institutions, student, teacher, science and technology, teaching system, technology, automation.

KIRISH. Har bir davlatning ravnaq topishi, uning gullab yashnashida ta'limning o'rni beqiyos. Ta'lim har bir sohaning poydevoridir. Shunday ekan, nafaqat o'qtuvchilar balki, boshqa soha vakillari ham bunga befarq bo'lmasliklari lozim.

Zamonlar osha fan va texnologiya shunday rivojlanib bormoqdaki, ta'lim sohasida ham texnologiyalarning zamonaviylashuvi ta'limga yangicha innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Shunday innovatsiyalarning biri bu sun'iy intellekt bo'lib, u hozirda hamma sohalarda o'z o'rniga ega.

Internet tarmoqlari butun dunyoni egallab, har bir xonadonga kirib keldi. Bu ko‘rinmas kuch olamni zabt etdi. Hech bir soha bugungi kunga kelib o‘z faoliyatini internetsiz yurita olmaydi. Shu internetni bizga o‘tkazib berish uchun har xil murakkab programmali qurilmalar o‘ylab topildiki, uning nomi Sun‘iy intellekt deb ataldi.

Sun‘iy intellekt avvallari faqatgina odam miyasiga xos bo‘lgan ta‘lim olish, fikrlash, mantiqiy so‘z qurish xususiyatlari jamlangan bo‘lsa, endilikda kompyuterlar zimmasiga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologiyaga asoslangan dastur deb tushuniladi.

FORS kompaniyasi Sun‘iy intellekt yordamida hal etiladigan bir qancha ijtimoiy muammolarni keltirdi. Ular yovvoyi tabiatni saqlab qolish; epidemiyalar, shaxslar aro kelishmovchiliklar, tabiiy ofatni bashorat qilish; kamsitilish, bezorilik, internet orqali haqoratlash, o‘tkazmalar, qishloq xo‘jaligi va boshqalardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Sun‘iy intellektning ta‘lim sohasida erishayotgan yutuqlari beqiyos. Oddiy insonni olib qaraydigan bo‘lsak, har kuni ta‘lim borasida biror bir ma‘lumot kerak bo‘lsa, Google qidiruv tizimiga yoki boshqa tizimlarga murojat qilishadi va albatta o‘sha zahoti izlangan savolga kerakli javob topiladi.

Sun‘iy intellektning sohalarda o‘rganilini tatbiq etilishi bo‘yicha quyidagi tatqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, Ortiqov Quadrat Saidqulovich “Sun‘iy intellektni joriy etish asosida davlat boshqaruvi mexanizimini takomillashtirish”, Xamidov Baxodirjon Sodiqjonovich “Qurilishda mehnat unumdorligini oshirishda sun‘iy intellektning qo‘llanilishi”, Sultonov Ruslan Rustamovich “Sun‘iy intellekt yordamida ta‘lim kontentlarini shakllantiruvchi axborot tizimini yaratish (nodavlat oliy ta‘lim muassasalari misolida)”. Sun‘iy intellekt yordamida ta‘limni yaxshi tomonga inqilob darajasigacha ko‘tarish mumkin. U ta‘limda turli xil maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Sun‘iy intellekt yordamida yangi imkoniyatlar va yangi innovatsion metodlarni kashf qilish mumkin[1,2].

Sun‘iy intellekt butun dunyo bo‘ylab insonlarning ishlarida yengillik yaratib, muammolarni osonlik bilan bartaraf etishda sezilarli hissa qo‘shmoqda[3].

Xorijiy davlatlarda ta‘lim tizimida sun‘iy intellekt keng qo‘llaniladi, jumladan, buni Hindiston davlati misolida ko‘rib o‘tish mumkin.

Hindiston ta‘lim tizimida sun‘iy intellektning kirib kelishi ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Sun‘iy intellekt masofadan turib o‘qitishda qulay, sababi uzoq masofalardan kelib o‘qiydigan talabalar uchun vaqt hamda moddiy ta‘minotning iqtisod bo‘lishi; ishlaydigan talabalar uchun kechki o‘qish turi yoki ta‘limning sirtqi ko‘rinishida bo‘lishi[4].

Auditoriyada offline o‘qiydigan talabalarning soni qancha ko‘p bo‘lsa, darsning sifati tushib ketishi mumkin, sababi o‘qituvchi berilayotgan ma‘lumotni har bir o‘quvchiga yetkazib berishga qiynaladi, chunki talabalar saviyasi bir xil emas. Mavzuni kimdir tez va tushunsa kimlardir aksi bo‘ladi. Darsni yaxshi tushunmayotgan talabalar o‘qituvchidan qayta so‘rashga atrofidagi boshqa tahsil olayotgan sheriklaridan darsga beetibor yoki boshqa holatda o‘tirganlikda ayblab qolishlaridan uyaladigan toifalari ham mavjud. Bu esa talabalarning qabul qilish darajasi har xilligini bildiradi. Online bunday muammolar bo‘lmaydi.

NATIJALAR. An’anaviy o‘qitishdagi yana bir noqulay vaziyatlardan biri bu, o‘qituvchining dars o‘tilganda doskaga yozgan ma’lumotlari, keyingi darsga kirgan boshqa o‘qituvchi tomonidan o‘chirib tashlanishi, keyin esa u o‘zinig ma’lumotini yozishi huddi shu xolat yana va yana takrorlanaveradi. Dars o‘tgan o‘qituvchilar orasida birortasiga o‘tilgan mavzu kerak bo‘lganda unga yana qayta yozishiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Sun’iy intellekt yordamida bunday muammolar bartaraf etildi, ya’ni, yozuvlar saqlab qo‘yilib kerak paytda yana qayta foydalanish imkoniyatini berdi[4].

Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilar davomatini olish ham yengillashdi, chunki o‘qituvchi hamma talabalarni eslab qolishga qodir emas. Sun’iy intellekt orqali o‘quvchilarni tanib olib davomat olinishi yo‘lga qo‘yildi.

Sun’iy intellekt yordamida online dars olib borayotgan o‘qituvchining gaplari har xil tillarga tarjima qilish imkonini berdi. Boshqa til va boshqa millat talabalariga bu qulaylikni taqdim etdi.

Sun’iy intellektning yana bir qiziq funksiyalaridan biri bu, bitirib chiqib ketgan, yaxshi o‘qigan va qobiliyatli talabarni o‘z salohiyatiga mos sohalar bo‘yicha ishga joylashishi yoki ishga taklif qilishni joriy qilindi.

MUHOKAMA. Sun’iy intellektning shu va shunga o‘xshash funktsiyalari bizning davlatda ham joriy qilina boshlagani hammaga ayon. Ayniqsa COVID-19 pandemiyasi yoyilishi Respublikamizning chekka hududlarida ham sun’iy intellektning imkoniyatlari haqida tushunchalarga ega bo‘ldilar.

Oliy ta’lim o‘quv muassasalarida ham sun’iy intellektning bir nechta imkoniyatlaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular o‘qituvchi va talaba yoshlarga bir qancha yangiliklar yaratmoqda.

Sun’iy intellektidan ta’limda quyidagi masalalarda qo‘llash maqsadga muvofiq:

- ishni belgilash va baholash kabi ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirishda;
- shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimini joriy etishda;
- talabalarga shaxsiy hisobot taqdim qilishda;
- online ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishda;
- kurs va dars rejalarini tuzishda;
- talabalar qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lishi mumkinligini aniqlashda;
- so‘rovlarga javob berishda chatbot tashkil etishda;
- ta’lim muassasalariga kompyuterga asoslangan vazifalarni bajaradigan va ularning ish yukini kamaytiradigan “virtual yordamchi” hosil qilishda;
- talabalarga o‘zining virtual o‘qituvchisini tashkil etishda.

Ta’lim berishda darsning yetarlicha tushunarli bo‘lmashligi, samarasiz yoki sifatsiz o‘qitilishi ta’lim sohasi vakillarining ta’lim vositalaridan to‘g‘ri foydalana olmasligi anglatadi. Amaldagi har qanday sun’iy intellekt vositasidan o‘qituvchilar va talabalarining nima yaratayotgani va qanday ishlashini nazorat qila olishi kerak. Asosan yoshi katta va kompyuter texnologiyalaridan yetarlicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar va talabalar

sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanishda bir qancha noqulayliklarga duch kelishi mumkin. Natijada sun'iy intellektni keraksiz texnologiya deb hisoblashlari mumkin.

Ayrim ta'lim muassasalari tashkiloti uchun qimmat sun'iy intellekt vositalarini sotib olmasligi mumkin. Bu esa talabalarda shaxsiy laptoplar, noutbuk va boshqa aqlli qurilmalarning mavjud bo'lmashligiga olib keladi.

XULOSA. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida asosiy rol o'ynashi, ta'lim berish va tajribasini o'zgartirilishiga tahmin qilinmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyasi rivojlanishda davom etmoqda, bu esa ta'lim sohasida o'qitishni soddalashtirishga va shaxsiylashtirilgan o'rganish, amaliy tajribalarini ta'minlashi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada bu, ta'limni yanada qulay, samarali qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, SI texnologiyalari xorijda ta'lim sifatini oshirish va uning qamrovini kengaytirish bo'yicha muhim o'rin egallab, talaba va o'qituvchilarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu tajribani mahalliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali o'quv jarayonlarini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J. Sh. Bekqulov, I. Ibragimov "Sun'iy intellekt asoslari" Darslik, Qarshi-2023y.
2. Q. A. Bekmuradov. Sun'iy intellekt. Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun o'quv qo'llanma.-T.: "Aloqachi", 2019y

Internet xavolasi:

3. <https://yandex.uz/video/preview/16059233316408122102>
4. <https://yandex.uz/video/preview/10957945612635124453>